

“Depozit uchun keshbek” Dasturini o‘tkazish qoidalari

MUNDARIJA

1. Umumiy shartlar;
2. Atama va ta’riflar;
3. Dastur tashkilotchisi;
4. Dasturda ishtirok etish tartibi;
5. Ishtirokchilar huquqlari va majburiyatlari;
6. Bank huquq va majburiyatlari;
7. Javobgarlik;
8. Nizolarni hal etish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

1. UMUMIY SHARTLAR.

1.1. Mazkur “TBC Bank” ATB (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi) “Depozit uchun keshbek” dasturining Qoidalari (keyingi o‘rinlarda “Dastur” deb ataladi) Bank Mijozlarining Dasturda ishtirok etish shartlarini va tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Dastur Qoidalari lotereya emas yoki Dasturda ishtirok etish bilan bog‘liq holda, Dastur ishtirokchilari uchun mol-mulk xavfini yuzaga keltiruvchi tavakkalchilik asosida yaratilgan o‘yin emas. Dasturni o‘tkazish tartib-taomili ishtirokchilar tomonidan biror-bir to‘lovni kiritishi bilan bog‘liq emas.

1.3. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolar Kodeksining 367-moddasiga va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq chaqirib olinmaydigan ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalar Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan - www.tbcbank.uz.

1.4. Dasturning boshlanish sanasi: 2023 yil 13 mart; Dasturning tugash sanasi: 2023 yil 30 aprel, shu jumladan. Dastur amal qilish muddati: Boshlanish sanasidan boshlab tugash sanasigacha bo‘lgan muddat davomida, shu jumladan.

1.5. Dastur o‘tkazish joyi: O‘zbekiston Respublikasi hududi.

1.6. 13.03.2023 yildan 30.04.2023 yilgacha bo‘lgan davrda TBC UZ mobil ilovasi orqali milliy valyutada 18 oy yoki 24 oylik yangi muddatli depozitni muvaffaqiyatli ochgan Bankning har qanday verifikatsiyadan o‘tgan mijozi Dastur ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

1.7. Bankning xizmatlari va mahsulotlarini olish, ulardan foydalanish, shu jumladan milliy valyutada muddatli omonat (depozit) ochish tartibi va shartlari Bankning Bosh Shartlari (keyingi o‘rinlarda “BSh” deb yuritiladi) va Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan va/yoki Bankning mobil ilovasi orqali ko‘rib chiqish uchun mavjud boshqa shartnomalar bilan tartibga solinadi.

1.8. Dastur amal qilish muddati davomida 18 yoki 24 oylik muddatli depozit ochgan Bank mijozi ushbu Dastur shartlarini avtomatik ravishda qabul qiladi va ularga rozilik bildiradi.

2. ATAMA VA TA‘RIFLAR

Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki.
Dastur	“TBC Bank” ATBning “Depozit uchun keshbek” dasturi
Bankning Mijozi	Bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs
Ishtirokchi	Dastur ishtirokchisi sifatida mazkur Qoidalarning shartlariga muvofiq kelgan Bankning mijozi.
Ilova	AppStore va Playmarket platformalarida ishlovchi qurilma-smartfonlarda foydalanish mumkin bo‘lgan TBC UZ mobil ilovasi.

Depozit	Bank mahsuloti - milliy valyutadagi muddatli depozit shartnomasida ko'rsatilgan shartlar asosida ochilgan muddatli omonatdir.
Keshbek	Ushbu Qoidalar shartlari va tartibiga muvofiq mablag'lar bir qismini ko'rinishida Ishtirokchiga to'lanadigan pul mablag'larining summasi.

3. DASTUR TASHKILOTCHISI.

3.1. Dastur tashkilotchisi - Bank.

3.2. Bankning rekvizitlari: 100084, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B-uy. Telefon: +99878 777 2727. Pochta: contact@tbcbank.uz

4. DASTURDA ISHTIROK ETISH TARTIBI.

4.1. Ishtirokchiga aylanish uchun Bankning Mijozi ushbu Qoidaning 1.6-bandida belgilangan shartlarga rioya etishi zarur.

4.2. Dasturning mukofoti - Keshbek, depozitni birinchi to'ldirilgan summasining 2% ni tashkil qiladi. Depozitni to'ldirishning ruxsat etilgan minimal va maksimal miqdori milliy valyutadagi muddatli depozit hisobvarag'i shartnomasida ko'rsatilgan.

4.3. Barcha shartlarni bajargandan so'ng, Bank Mijozi avtomatik ravishda Ishtirokchi maqomiga ega bo'lib, Keshbek oladi. Keshbek Mijozning joriy yoki karta hisobtaqamiga Depozit muvaffaqiyatli ochilgan va to'ldirilgan kundan keyin besh ish kunidan kechiktirmay o'tkaziladi. Mijoz bir martadan ko'p bo'lmagan Keshbek olishi mumkin.

4.4. Muddatli depozit ochish tartibi Bankning "Muddatli Depozit" mahsuloti shartlari bilan belgilanadi va Bankning tegishli shartnomalari bilan tartibga solinadi.

4.5. Keshbekni Ishtirokchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan har qanday maqsadlar uchun sarflashi mumkin.

4.6. Bank har bir Ishtirokchini mobil ilovada SMS va/yoki Push-xabarlar orqali Keshbek o'tkazmasi haqida xabardor qiladi.

5. ISHTIROKCHILAR HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:

- Bank qoidalari va shartnomalarida belgilangan hajmda va tartibda Dastur haqida ma'lumot olish;
- Mazkur Qoidalarga muvofiq Ishtirokchi maqomiga ega bo'lish.

5.2. Ishtirokchi ushbu Dastur Qoidalari bilan tanishib chiqishi kerak. Bank Mijozining Dasturda ishtirok etishi avtomat ravishda ushbu Qoidalar bilan uning tanishib chiqib, to'liq o'z roziligini bildirganini anglatadi.

6. BANK HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

6.1. Bank Dasturni o'tkazishi kerak, shu bilan birga Keshbek o'tkazmasi bo'yicha majburiyatlarini mazkur Qoidalarga muvofiq bajarishi kerak.

6.2. Ushbu Qoidalar 1.4-bandiga muvofiq Dasturning amal qilish muddati davomida Bank tomonidan bekor qilinishi mumkin emas.

6.3. Bank Dastur ishtirokchilarini identifikatsiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida so'rovnomalar yoki Dasturni amalga oshirish uchun boshqa ma'lumotlar va hujjatlarni to'plash orqali ishtirokchilarning shaxsga doir ma'lumotlarini to'plash huquqiga ega.

6.4. Bank bir tomonlama tartibda dastur shartlarini o'zgartirish va Dastur to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni <https://tbcbank.uz/> veb-saytida, shuningdek, Bank ofislarida e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

6.5. Bank xavf va suiiste'mollik bo'yicha tekshirish ishlarini o'tkazganidan so'ng, Mijoz Keshbek olish uchun da'vogar bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, agar Bank mijozni noqonuniy, shubhali va/yoki firibgarlik harakatlarini amalga oshirayotgan deb asosli ravishda hisoblasa, Bank Mijozni ushbu Qoidalar shartlarini bajarishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Biroq, Bank: (a) har qanday chegirmalarni bekor qilish; (b) Mijozning Dasturda ishtirok etishini yoki **sovg'a** ega bo'lishini taqiqlash; (c) Mijozning kelajakdagi aksiyalar va o'yinlardagi ishtirokini bloklash; va/yoki (d) har bir holatda, agar u o'zining oqilona fikriga ko'ra, Mijozning xatti-harakatlari ushbu Qoidalarga zid deb hisoblasa va/yoki Mijoz Dastur shartlarini suiiste'mol qilayotganligi borasida qaror qabul qilgan bo'lsa yoki har qanday holatda uning hisobini to'xtatib qo'yishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi:

(i) bir nechta hisobvarag'lar ochish;

(ii) ro'yxatga olish vaqtida noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish;

(iii) ijtimoiy tarmoqlarda, veb-saytlarda, qidiruv tizimlarida yoki ommaviy tarqatish vositalarining har qanday shakli orqali yolg'on/noqonuniy/noto'g'ri ma'lumotlarni ommaviy ravishda taqdim etish;

(iv) hisobvarag'ning haqiqiy egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga foydalanish huquqi bilan ta'minlash.

6.6. Agar Bank Dastur natijalarini e'lon qilganidan keyin bir hafta ichida Dastur g'olibi bilan bog'lanishning imkoni bo'lmasa, Bank ma'lum bir g'olib ishtirokidagi o'yin natijasini bekor qilish va Sovrinni Dasturning boshqa Ishtirokchilari orasida yana o'tkazish huquqiga ega.

7. JAVOBGARLIK.

7.1. Bankning Keshbek o'tkazmasi bo'yicha majburiyati Ishtirokchi Keshbek summasini olgan vaqtdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

7.2. Bank mazkur Qoidalar amal qilish muddati davomida yuzaga kelgan tizimlardagi texnik nosozliklar, kamchiliklar, xatolar bilan bog'liq ushbu Qoidalarga muvofiq majburiyatlar bajarmaganligi uchun javobgar emas.

7.3. Agar 7.2-bandda ko'rsatilgan vaziyatlar yuzaga kelsa, Bank texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, kamchiliklar va nosozliklarni bartaraf etish sana va muddatini Bank mustaqil ravishda belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.

7.4. Agar uchinchi shaxslarning qasddan va/yoki qasddan bo'lmagan harakatlari sabab Bank ushbu Qoidalarda belgilangan shartlarni bajara olmasa, Bank javobgar emas.

7.5. Mazkur Qoidalar asosida tartibga solinmagan boshqa masalalar Bankning Bosh Shartlari hamda Bank va Bankning Mijozni o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

8.1. Ushbu Qoidalaridan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq barcha nizoli masalalar do'stona yo'l bilan maslahat va muzokaralar yordamida hal qilinadi.

8.2. Agar Tomonlar nizo va kelishmovchiliklarni 8.1-bandga muvofiq hal qilishga erisha olmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq Bankning rasmiy ro'yxatdan o'tgan manzilida hal qilinadi.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Mazkur Qoidalar 13.03.2023 yildan kuchga kiradi va 30.04.2023 yilgacha amal qiladi. Bank aksiyani istalgan muddatga uzaytirish huquqiga ega.

9.2. Mazkur Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan – www.tcbank.uz

9.3. Dastur ishtirokchilari yuqoridagi saytda (yuqoridagi havolada) tegishli o'zgarishlarni tekshirish orqali Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.

9.4. Bank mijozi TBC UZ mobil ilovasining “Mulohazalar” bo‘limida bu haqda yozgan holda ushbu Dasturda ishtirok etishni rad etishga haqli.

9.5. Agar Bank Mijozi tomonidan amalga oshirilgan shubhali operatsiyalari/xatti-harakatlarini aniqlasa, yoki Bankda Mijozning amaldagi qonun hujjatlariga va Bankning har qanday shartnomalariga zid bo‘lgan noqonuniy yoki firibgarlik harakatlarini amalga oshirayotganligiga shubha tug‘ilsa, Bank Mijozga har qanday mukofotni o‘tkazishni rad etishga haqli.